



## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA ONA TILI VA ADABIYOTNI O'QITISHDA UZVIYLIKNI TA'MINLASH METODIKASI

Arziyeva Gauxar Kuljanovna

O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali  
Pedagogika fanlari, Mustaqil izlanuvchi (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, hamkorlikda ish yuritishga o'rgatish yo'llari va usullari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, mustaqil fikrlash, metod, o'yin.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limganing jahon ta'limi tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq. Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi.

Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni, didaktik o'yinlarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Umumiyligi o'rta ta'linda ona tili va adabiyot fanining o'rni beqiyosdir. Mantiqiy va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodiy va badiiy tafakkurga ega shaxsni kamol toptirish ona tili va adabiyot fanining bosh maqsadidir. Buyuk bobolalonlarimiz aytganidek: "Dunyodagi jamiki fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi". Shunday ekan, o'quvchilarni mangu el-onasiga zaminga mehr-muhabbat, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari, eng avvalo, ona tilini o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Bu hol yosh avlodni kamol toptirishda ona tili va adabiyot o'qituvchisining xizmati naqadar mas'uliyatli ekanligidan dalolat beradi. Zero, dars-muqaddas! Demak, maqsad bitta, ham bo'lsa, o'quvchilarga berilayotgan ta'limgartarbiya sifatini oshirib, ularga kommunikativ salohiyatni shakllantirish, mustaqil hayotda o'z fikriga, o'z so'ziga ega bo'lgan vatanimiz ertangi kunini dadil davom ettirib, yuqori marralar sari intiladigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat.



Bizga ma'lumki hozirgi kunda dars jarayonlarida an'anaviy darslardan voz kechib, noan'anaviy usullar yordamida ta'limni olib borish odat tusiga kirmoqda. Bularningnatijasi o'larоq dars jarayonlarini tashkil etishda turli xil interfaol metodlar,intellektual o'yinlar ishlab chiqilmoqda. O'quvchilar ham yangi mavzu bayoni yoki o'tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida turli xil metodlar orqali tashkil etilgan darslarni ma'qullahadi. Sababi ta'lim oluvchilar mavzuni osonroq o'zlashtiradilar va o'zgacha qiziqish bilan yondashadilar.

Ma'lumki, adabiyot darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish , dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish DTS talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish , o'sib kelayotgan yosh avlodga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda adabiyot darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib boramiz. Keyingi paytlarda ilg'or tajribali o'qituvchilar tomonidan darsning seminar-dars, suhbат-dars, sinov-dars, konferensiya-dars, sayohat-dars kabi turlari o'tkazilmoqda. Bunday dars turlari o'quvchining dars paytidagi loqaydligiga barham berib, unda faollikni uyg'otadi, bolani o'ylashga, muhokamali fikr yuritishga, so'zlashga va izlanishga hamda mehnat qilishga o'rgatadi.

Buning uchun hamma vaqt o'qituvchi, o'z o'quvchilariga nisbatan ko'proq shug'ullanib, bilim va mahoratini tinmay oshirib borishi lozim. Shundagina u o'z nomiga munosib faoliyat kishisi bo'ladi. Mehnatning samarasi sifatida har bir darsi mazmunli, maroqli tashkil etganligi bilan , uning mashg'ulotlariga o'quvchilar tobora qiziqib borayotganliklarini, shogirdlarining dars jarayonida o'quv materiallarini, o'zaro ishtiyoq bilan o'rganishga, kirishib faollik va uyushqoqlik ko'rsatayotganliklarini qalbdan his etadi. Bunday natijaga, shubhasiz dars jarayonida o'qitish usullaridan har tomonlama foydalanish orqali erishish mumkin.

Men o'z darslarimni o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqaman, ulardan o'z vaqtida va o'mida foydalanishga harakat qilaman. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun "Aqliy hujum", "Zakovat", "Modul dars", "Zigzag", "Interfaol", "O'yin dars", "Munozarali -bahsli dars", "Sayohat dars", "Musobaqa dars" kabi o'yinlardan va metodlardan foydalanaman. Darslarda o'zim o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanishga harakat qilaman. Ta'lim har doim yangilanishga mushtoqdir.

Shuning uchun, iloji boricha, ta'limning yangicha usullari ustida izlanishimiz talab etadi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni



zeriktiradi. Natijada o'quvchi darslarni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagи darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yordan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usulning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

Hozirda ta'lif metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'naliishlardan biri interfaol ta'lif va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llashnatijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Misol uchun "Aqliy hujum" metodidan ona tili va adabiyot darslarining boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llash mumkin. Bu bosqichda muammo o'quvchilarga aqliy hujum yo'li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali ochiladi. "Aqliy hujum" metodi biror mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladi. Bu metod yordamida qo'yilgan muammo yuzasidan bir necha yechimlarni topish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish, eng asosiysi, o'quvchini qo'zg'atishga qaratilganligi, pedagogning o'z tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Атажанова, М. А. (2021). МИФОЛОГИЧИСКИЕ АРХЕТИПЫ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ И ИХ ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ПРИРОДА. Academic research in educational sciences, 2(12), 143-148.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi . "Nasaf", 2000-y.
3. Azizzoxjayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. TDPU. 2006.
4. G'ulomova M .X . , Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lif samaradorligini oshirish usullari. T. 2009-y.
5. Khasanova, G. (2023). Some Considerations on Nonverbal Communication (No. 11076). EasyChair.
6. Сабирова, Н. Э. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ УЧАЩИМИСЯ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА С ЦВЕТОВЫМИ КОМПОНЕНТАМИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 34-36).



7. Eun, P. S., Kh, M. G., & Xasanova, G. (2023). The Role and Classification of Parenthesis in Literature. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 324-328.
8. Atadjanova, M. A. (2016). Animistic mythology and its functional nature in the current Uzbek prose. Молодий вчений, (1), 290-294.
9. ALAVUTDINOVA GANIEVNA, N. (2015). 20. ASIR ÖZBEK DİL BİLİMİNDE MORFOLOJİYE AİT GÖRÜŞLERİN ŞEKİLLENMESİNDE PROF. EYYÜP GULAMOV'UN YERİ. Turkish Studies (Elektronik), 10(12), 1-14.
10. Отажонова, М. (2016). ИЖОДКОР БАДИЙ ТАФАККУРИДА ВОҚЕЛИКНИНГ МИФОЛОГИЗАЦИЯЛАНИШИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 32(3), 127-129.
11. Saidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. T . 2000-y.

